

YURTIMIZDA KURASH SPORT TURINING RIVOJLANISHI VA YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI

N.Mamirov

TATU Farg'ona filiali O'zbek tiliva gumanitar fanlar kafedrasasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yurtimizda kurash sport turiga qaratilayotgan e'tibor, hozirgi kunda yoshlarning kurashga bo'lgan qiziqishlari va yoshlar hayotida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Sport, kurash, belbog'li kurash, kurash gilami.

Abstract. This article talks about the attention paid to the sport of wrestling in our country, the interest of young people in wrestling and its role in the life of young people.

Key words: Sport, wrestling, belt wrestling, wrestling mat.

Аннотация. В данной статье рассказывается о внимании, уделяемом спортивной борьбе в нашей стране, интересе молодежи к борьбе и ее роли в жизни молодежи.

Ключевые слова: Спорт, борьба, борьба на поясах, борцовский ковер.

Kurash haqida — sportning qadimiy turi. U 5 ming yildan ortiq vaqtdan buyon ma'lum. Uning haqiqiy vatani O'zbekistondir. O'zbek kurashida xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo'lgan mardlik, jasurlik, bag'ri kenglik, raqibiga nisbatan olijanoblik, halollik, insonparvarlik fazilatlarini mujassamlashgan.

Bizning ona zaminimizda tug'ilib-o'sib, nomlari afsona-yu dostonlarga aylanib ketgan Alp Er To'nga (Afrosiyob), Alpomish, Pahlavon Mahmud singari yelkasi yerga tegmagan bahodirlar kurash orqali o'zbek yurtining dong'ini butun olamga taratganlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha milliy qadriyatlar kabi kurashga ham e'tibor kuchaydi. Taniqli kurashchi, xalqaro toifadagi sport ustasi Komil Yusupov jahon andozalariga mos keladigan qonun-qoidalarva kurash kiyim-kechagini ishlab chiqdi.

Musobaqada hakamlar kurash gilamiga chiqqanlarida, o'rtadagi hakam qo'lini ko'ksiga qo'yishi bilan chetdagi ikki hakam ham qo'lini ko'ksiga qo'yib, barobariga tomoshabinlarga va bosh hakamga qarab, egilib ta'zim qiladilar.

Milliy kurashda faqat tik holatda va qabul qilingan usullar qo'llash orqali kurashiladi. Bellashuvda kurashchilar oyoqyalang, yashil va ko'k yaktak, qizil belbog' va oq ishtonda bo'ladilar.

Bellashuv vaqti oldindan kelishib olinadi, lekin 3 minutdan kam, 20 minutdan ko'p bolmasligi kerak. Bunda «To'xtang» va «Kurash» shartli iboralari oralig'idagi vaqt hisobga kirmaydi. Bellashuvda bir kishi g'olib bo'lishi yoki kuchlar teng kelishi mumkin. Kurashchilar harakati quyidagicha baholanadi:

Kurashning jahon miqyosida tan olinishida, dunyoga yoyilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning xizmati katta. Uning tashabbusi bilan Termiz va Toshkent shaharlarida kurash bo'yicha xalqaro turnirlar o'tkazildi.

1998-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kubogi musobaqalarida jahonning 28 mamlakatidan polvonlar qatnashdi. Shu yili xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil etildi.

1999-yil 1 — 2-may kunlari Toshkentning «Yunusobod» tennis saroyi va «Jar» sport majmuida kurash bo'yicha 1-jahon chempionati musobaqalari bo'lib o'tdi. Unda o'zbekistonlik Akobir Qurbonov (73 kg vaznda), Kamol Murodov (90 kg vaznda) va Tosh- temir Muhammadiyev (90 kg dan yuqori vaznda)lar jahon chempionlari boldilar. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari yana 3 ta kumush, 4 ta bronza medali oldilar.

Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, qad. olimpiada musobaqalaridan doimiy o'rin olib kelgan. Milliy Kurashning xilma-xil ko'rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va b. mamlakatlarda mavjud. Zavonaviy sport Kurash ining asosiy qoidalari 18-a. oxiri — 19-a. boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-y. Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O'zbekiston 1993-y. dan a'zo). Xalqaro maydonda sport Kurash ining yunonrum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va b. turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o'zbek Kurashi ham alohida Kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan oliva boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan Kurash bilan shugullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qad. Baqtriya (O'zbekiston jan.) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham Kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganidan da-lolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (2—3-a.) va b. tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart ko'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shar-tda Kurash musobaqasi bo'lgan. Bunga o'zbek xalq qahramonlik dostoni — «Alpo-mish»dagi Barchin shartlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida yozgan: «Kurashning turlari ham bir ulardan biri ikki kurashuvchining biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga o'z raqibidan qutulishning chorasini qiladi...». Bu ta'rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiyning «Hamsa», «Holoti Pahlavon Muhammad», Zayniddin Vosifiyning «Badoe' ul-vaqoe'», Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida Kurash hakida qimmatli ma'lumotlar bor. 9—16-a. larda

Kurash xalqo'rtasida keng ommalashgan. Shudavrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon qabilar Kurash dovrug'ini oshirishgan.

O'zbek xalq yakka kurashining belbog'li kurash deb nomlangan turi ham bor. Unga ham taalluqli ko'plab arxeologik topilmalar va tarixiy qo'lyozmalar mavjud. Bundan 5 ming yil ilgari davrga mansub qad. Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog'li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Xitoyning qad. «Tan-shu» qo'lyozmasida Farg'ova vodiysida to'ylar, sayllar Kurash musobaqalarisiz o'tmasligi yozilgan. Ahmad Polvon, Xo'ja polvon va sh. k. K. ning ana shu turida shuhrat qozonishgan (19-a. oxiri — 20-a. boshi). Chorizm istilosi va sho'rolar davrida o'zbek milliy Kurash ini xalq turmush tarzidan sun'iy ravishda siqib chiqarishga harakat qilindi. 20-a. ning 90-y. lari oxiriga kelib bu urinishlarga barham berildi. 1991-y. dakurashchilar sulolasi vakili, bir necha Kurash turlari bo'yicha xalqaro miqyosda sport ustasi Komil Yusupov o'zbekcha Kurashning xalqaro andozalarga moslangan quyidagi qoidalarini ishlab chikdi: K. tushuvchilar 14 x 14 m dan 16x 16 m gacha bo'lgan, chetroq qismi qizil rangli «xavfli chiziq» bilan belgilangan ko'k-yashil tusli Kurash gilamida tik turgan holatda bellashadilar. G'olib ishlatilgan usullar va maydondagi xatti-harakatlariga qo'yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo'g'ish, raqibga og'riq beruvchi usullar qo'llashga ruxsat etilmaydi, kurashuvchilarning biri ko'k, ikkinchisi yashil rangli yaktak (ayollar yaktak ichidan oq rangli futbolka) kiyadi, belga eni 4 - 5 sm li tasma (belbog') bog'lanadi, erkaqlar 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va 100 kg dan ziyod, ayollar 48, 52, 57, 63, 70, 78, va 78 kg dan ziyod vazn toifalarida kurashadilar (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, yoshi ulug'lar va qizlar musobaqalarida ham yosh xususiyatlari hisobga olingan holda vazn toifalari belgilanadi). Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA)ning 2003-y. Toshkentda o'tgan kongressi har bir uchrashuvning qizg'in bo'lishini ta'minlash maqsadida rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqtini 3 min. qilib belgiladi. Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda «chala», «yonbosh», «halol» baholari, qoidaga zid harakatlarga esa «tanbeh», «dakki», «g'irrom» jazolari beriladi. Kurashuvchi «halol» bahosini olsa (yoki raqibi «g'irrom» bilan jazolansa) bu uning g'alabasini bildiradi. Ikki bor «yonbosh» bahosini olish (yoki raqibining ikki bor «dakki» deya jazolanishi) ham g'alabani anglatadi. «Chala» baholari hisobga olib boriladi va h. k. Bahrlar tengligida oxirgi baho olgan kurash-chiga g'alaba beriladi, kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo'ladi, jazolar soni teng bo'lsa oxirgi jazo olgan mag'lub hisoblanadi, agar barchasi teng (yoki baho va jazo olinmagan) bo'lsa, g'olib hakamlarning ko'pchilik ovozigga ko'ra e'lon qilinadi.

1992-y. da O'zbekistonda kurash federatsiyasi, 2001-y. da O'zbekistonda belbog'li kurash federatsiyasi tuzildi. 1998-y. sent. da Toshkentda 28 davlat (AQSH, Boliviya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Rossiya, O'zbekiston, Yaponiya va h. k.) vakillari Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) muassislari bo'lishdi va shu munosabat bilan bu yerda o'zbekcha Kurash bo'yicha yirik xalqaro musobaqa o'tkazildi. O'zR Prezidentining «Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo'llab-

quvvatlash to'g'risida»gi farmoni (1999-y. 1 fev.) o'zbek milliy Kurash ining yavada rivojlanishiga turtki bo'ldi. O'sha yili Toshkentda o'zbekcha Kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati, Rossiyaning Bryansk sh. da ayollar o'rtasida xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. IKA qoshida Xalqaro Kurash akademiyasi, Butun jahon Kurashni rivojlantirish jamg'armasi tuzildi, assotsiatsiya muassisligida «Kurash» jur. ta'sis qilindi. Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik, axborot-reklama yo'nalishidagi bu jur. Toshkentda 1999-y. okt. oyidan buyon nashr etiladi.

2000-y. O'zbekistonda Kurash oyligi o'tkazildi. Bu oylik davomida 2 mln. ga yaqin kishi Kurash gilamiga chiqdi. Buyuk Britaniyada IKA faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an'anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2001-y. dan Xalqaro Kurash in-ti (Toshkentda) faoliyat ko'rsata boshladi. IKA ga 66 ta milliy federatsiya a'zo bo'lib kirdi (2003). Yevropa, Osiyo, Panamerika va Okeaniya K. konfederatsiya lari tuzildi. Hoz. paytda o'zbekcha Kurash bilan xorijiy mamlakatlarda 600 mingdan ziyod kishi shug'ullanadi. Kurashning bu turi bo'yicha jahon, qita va mamlakatlar chempionatlari hamda birinchshtiklari, O'zbekistonda atTermiziy, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan va boshqa ko'plab xalqaro musobaqalar muntazam o'tkaziladi. Hoz. vaqtda O'zbekistonda 22 ta olimpiada o'rinbosarlari maktabi, 37 ta bolalar o'smirlar sport maktabi va 206 ta Kurash maktabida sportning bu turi bo'yicha o'quvchilarga tahsil beriladi. Oliy o'quv yurtlarida 100 dan ortiq Kurash to'garaklari faoliyat ko'rsatadi. Kurashchilar bilan 851 vafar murabbiy shug'ullanadi (2003). Osiyo olimpiya kengashi 2003-y. da Kurashning bu turini Osiyo o'yinlari dasturiga kiritdi. Kurash bo'yicha o'tkazilidigan jahon chempionatlarida Bahrom Anazov, Isoq Axmedov, Maxtumquli Mahmudov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyev, Akobir Qurbonov (O'zbekiston), Kubashxonim Elknur, Selim Totar o'g'li (Tur-kiya), Aleksandr Katsuragi, Karlos Xonorato (Braziliya), Pavel Melananes (Polsha), Xiroyoshi Kashimoto (Yaponiya) va b. golib chikdilar va sovrindor bo'ldilar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda yurtimizda nafaqat kurashga balki, sportning hamma turlari bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Mazkurimkoniyatlardan to'g'ri va oqilona fodalanish lozimligini yoshlar ongiga singdirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Норқобилов М.Н., Мирходжаева З.С., Маҳмудов В.В. Жисмоний маданият ва спорт машғулотларида соғлом турмуш тарзини талабалар онгига сингдиришда педагогик ёндашувлар. Монография. Тошкент.: ТИҚХММИ, 2019, -Б. 4.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «2019 — 2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 118-сон. Қарори. 2019 йил 13 февраль.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада

- такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» тўғрисидаги ПФ-5924-сон Фармони. 2020 йил 24 январь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» тўғрисидаги ПФ-5924-сон Фармони. 2020 йил 24 январь.
 5. Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни 2025 йилгача ривожлантириш концепцияси. 2020 йил 24 январь
 6. Bazarov, O. O., & Kholdarov, S. (2016). SOCIAL IMPACTS FROM THE FORMER SOVIET NATIONAL GOVERNMENT POLICY. Ученый XXI века, (4-2), 11-13.
 7. Базаров, О. О. (2017). Soviet's economic politics and the problems of development of village economics in Uzbekistan (XX century 80 years an example of Fergana valley). Научная дискуссия: вопросы социологии, политологии, философии, истории, (5), 98-103.
 8. Бозоров, О. О. (2013). Актуальные вопросы исследования межнациональных отношений в Узбекистане (на примере Ферганских событий 1989 года). ББК 72 С56, 94.
 9. Bozorov, O. O. (2022). Implementation of the National Policy of the Former Soviet State in the Ferghana Valley. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(8), 59-62.
 10. Bozorov, O. O. (2022). Deportation of Meskheti Turkish People: Its Causes and Consequences. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 1(2), 87-89.
 11. Odilovich, B. O. (2018). Actual Issues of Interethnic Relations in Uzbekistan (on the example of the late of 1980s and the early of 1990s of the XX century). ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(7), 22-28.
 12. Bozorov, O. O. (2021). Measures to Stabilize National Policy and Relations in Uzbekistan (On the Example of 1989-1997). European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 307-311.
 13. Бозоров, О. (2022). Sovet davlatining deportasiya siyosati va uning oqibatlari (mesxyeti turk xalqi misolida). Взгляд в прошлое, 5(1).
 14. Rustamovna, N. A. (2022). RELIGIOUS XENOPHOBIA AND EXTREMISM THREATS OF THE XXI CENTURY. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 1(12), 39-42.
 15. Rustamovna, N. A. (2022). Religious Xenophobia In The Era Of Globalization And The Peculiarities Of Its Manifestation. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 69-74.
 16. Umarov, B. (2018). Psychological problems of prevention of extremism and terrorism among young people. The Light of Islam, 2018(1), 23.

17. Юсупова, Д. (2021). Изложение немецких праздников и традиций в учебниках. *Общество и инновации*, 2(4/S), 88-92.
18. Uktamaliqizi, Y. D. (2021). The usage of ethnographic terms in literary speech. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 855-857.